

this error is to be seen as a problem whose solution is a desideratum. One can assume that the hitherto didactic reticence towards this problem results from its complexity. This means an additional burden for the teachers, since they should have neither the time nor the opportunity to survey and analyze the state of linguistic research and make it fruitful for their lessons. Instead, they have to be satisfied with the explanations and exercises available in the textbooks and relevant reference works and hope that the learners will acquire this linguistic structure sufficiently.

As a form of derivation, the prefix belongs to the field of morphology. It is therefore necessary for an adequate reflection to first examine the scientific basis of this area. The best-known scientific descriptions are presented below and then assessed for their didactic suitability. This area is of considerable relevance for learners of German. Because the active and passive mastery of “forms, shapes and structures” can be understood as mastery of the German language personally. This mastery includes in particular the ability to understand and apply the principles of German word formation. This shows that morphology can be of great use: With its concepts and analyses, it provides a set of tools with which the formation of prefix verbs can be made transparent for teachers and thus easier to teach. This also applies to learners, with restrictions. When presented with workable morphological models, they acquire a cognitive schema that enables them to see the “structures” of prefixed verbs and use them in their own language reception and production. In addition, in the language acquisition process that has been expanded in this way, the foundations can be laid for later specialist discussions in the linguistic seminars. Of course, if such an approach is to truly support the language acquisition process comprehensively, it must include not only prefixed verbs but also other word-formation processes (determinative and copulative compounds, derivative nouns, adjectives and adverbs with prefixes and suffixes).

The basis of foreign language learning is to understand and produce the meanings of the language appropriately. For this, the learners would basically have to recognize the morphemes along with their functions, without these being clearly conveyed in textbooks or in lessons in separate

chapters. Rather, the lexeme appears as the basic unit of meaning-making, which is also due to the dictionaries. As is well known, dictionaries do not use the morpheme but the lexeme as a unit of order. This can give the impression that they are the only meaningful units, misinterpreting the relevance of the morphology. As a result, the expansion of the vocabulary, e.g. through prefixation, is treated externally and unsystematically in teaching practice.

First, after starting with substantive or adjective-based prefixes, it seems intellectual to introduce those with a verb base that also have semantic continuity. Namely, the learners start from the assumption that prefixes are connected with the respective base word in terms of meaning. It is therefore methodologically easier to deal with the semantic modification caused by the prefix in the classroom. First of all, following this, a treatment of those deverbal prefix verbs that show semantic discontinuity (e.g. search vs. try) is necessary. Furthermore, it is necessary in class to use a system that is as easy as possible as a basis and that is suitable for the associated language use. The morpho-syntactic criterion of separability or inseparability plays the main role here, because this is where most errors are to be expected, both for reception and for production. This means that only the categorization according to the basis and the (non) separability emerge as didactically important criteria. The separability refers to the well-known fact in German that certain verb suffixes are discontinuous (arrived, to arrive, arrives...). This morphosyntactic peculiarity is a potential additional source of error for learners who generalize the separability and, for example, metaphorically refer to subordinate clauses: “I’m happy if he invites me. This must be given special consideration in DAF lessons”.

The so-called types of action are essential for understanding the meaning of the prefix verbs. It is not necessary for the learners to learn the relevant technical terms, as this would probably overwhelm them. In fact, the teachers should have a solid knowledge of the prefixed verbs in order to be able to prepare their lessons on the basis of them. Helbig&Buscha [5:143] and the Duden grammar [7:197] are the only grammars that list and completely define the same types of actions.

References

1. Balci T. (2006): Valenzstrukturabhängige Probleme beim DaF-Lernen türkischer Studierender. DaF, 4. Quartal. Herder - Institut. Leipzig. S. 239
2. Odawa A. (1998): Präfixverben im DaF-Unterricht. In: Deutsch als Fremdsprache, Heft 3. Quartal 2003, S:159-164
3. Wissner-Kurzawa E. (1995): Grammatikübungen. In: Bausch&Herbert&Krumm (Hrsg.): Handbuch Fremdsprachenunterricht. Tübingen, Langenscheidt.235,
4. Schröder Jochen (1992): Lexikon deutscher Präfixverben. Langenscheidt. Berlin.183.
5. Helbig G. (1976): Probleme der deutschen Grammatik für Ausländer. Leipzig: Veb Verlag Enzyklopädie.
6. Fleischer W. &Barz, I. (2012): Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. Berlin: DeGruyter
7. Duden (1984): Die Grammatik, Mannheim: BibliographischesVerlag.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada prefiksli fe'llar turli nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi, nemis tilidagi murakkab tuzilishga misol sifatida foydalanish mumkin gaplar oxiridagi keladigan fe'llar bilan prefikslar qullanilishi haqida suz yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье префиксальные глаголы рассматриваются с разных точек зрения, а употребление префиксов с глаголами в конце предложений может быть использовано как пример сложной структуры немецкого языка.

SUMMARY. In this article, prefixed verbs are considered from different points of view, and the use of prefixes with verbs at the end of sentences can be used as an example of the complex structure of the German language.

KISHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARGA ZAMONAVIY EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH MAZMUNI

M.J.Allayarov– o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tabiat, ta'lim, atrof-muhit, o'quvchi, pedagogika, ekologik ta'lim, maktab.

Ключевые слова: природа, образование, окружающая среда, ученик, педагогика, экологическое образование, школа.

Key words: nature, education, environment, student, pedagogy, environmental education, homeland, school.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiya asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga yondashish o'qitish, rivojlantirish

va tarbiyalashning yo'nalishlari, muammolari, echimlarini tez hal qilishga yordam bermoqda. Ta'lim tizimining yangi

mazmuni, o'quv rejasi, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashishni tashkil etish zaruriyati tug'ilmoqda. Shuning uchun Qoraqalpog' maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qish darslarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Mamlakatimiz istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'lik ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va o'quv materiallari tarkibini kengaytirish, shu asosda ekologik ta'lim-tarbiyani chuqurlashtirish lozim. Bunda nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak atrofga munosabatlarini ham kiritish nazarda tutilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tevarak atrofga ijobiy munosabatini shakllantirish jarayonida o'qish darsligi va o'qituvchi mehnati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, darslik va o'quv qo'llanmalarida fanlar erishgan yakuniy natijalar yaxlit holda aks etadi. Bu esa uning amaliyotdagi ta'sirining xarakterini tashxis qilishimizga imkon beradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga o'qish darslarida ekologik ta'lim-tarbiya berish ishlari asosiy o'rinni egallashi lozim. Lekin ushbu talabga qaramasdan, boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida berilgan har xil hikoyalar, qo'shiqlarda ekologik mazmundagi matnlar etarli darajada bayon etilmagan. Darslik mualliflari ekologik tushunchalarni singdirishga yo'naltirilgan o'quv materiallariga juda kam o'rin ajratganlar. Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish darslarida ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar, ko'llanmalarga juda ham muhtojdir.

Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarga ekologik bilim va tarbiya berishning ayrim qirralarini ochishga harakat qildik. Qoraqalpog' maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darslarida ekologik tarbiya berishga qaratilgan bir qator ishlar mavjud. Boshlang'ich sinf «Alifbe» va «O'qish» darsliklarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik [1].

1-sinf Alifbe darsligi «1-sentyabr` O'zbekiston Mustaqilligi kuni» mavzusi bilan boshlanadi [1]. Darslikda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining Davlat bayroqlari, Amir Temur bobomiz haykali va uning orqasida go'zal tabiat manzarasi hamda Toshkent shahrining osmono'par imoratlari juda chiroyli tasvirlangan. 1-sinf o'quvchilariga birinchi darsning o'zidayoq tabiat haqida tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir.

Kitobning 3-betida Nukus shahri markazida joylashgan Berdaq haykali va uning atrofidagi daraxtzorlar tasvirlangan.

Kitobning 4-5-betlarida maktab va sinf xonasi tasvirlangan. Maktab va sinf honasi toza va ozoda, o'quvchilar ham maktab formasida ozoda kiyinganlar. 6-7-betlarda ham o'quvchilarning ertalab turib badan tarbiya, nonushta qilishlari, so'ngra maktabga borishlari, maktabdan qaytib o'z xonasini tozalashi, toza havoga chiqib o'ynashi, televizor ko'rishi, uxlashdan oldin dush qabul qilishi tasvirlangan. Yuqorida berilgan rasmlarni tushuntirish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni ozodalik, kun tartibiga rioya qilish, intizomli bo'lishga o'rgatishi lozim.

Kitobning 8-betida katta Qoraqalpog' oilasining rasmi tasvirlangan. O'qituvchi mazkur rasm orqali o'quvchilarga oiladagi tartib, dasturxon atrofida o'tirish va o'zini tutish, uyni ozoda va tartibli saqlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi xislatlarni singdirishi kerak.

16-17-sahifalarda tabiat manzaralari tasvirlangan. Tabiat qo'ynida futbol o'ynayotgan bolalar, tog' yon bag'rida qo'y-qo'zilarni boqib yurgan otaxon hamda uy hayvonlarining rasmi juda go'zal va rang-barang qilib tasvirlangan. Kitobning 18-19-betlarida ham tabiat manzarasi, er haydayotgan traktor, traktor atrofida uchib yurgan qushlar, olisdagi tog'lar, moviy osmon tasvirlangan. Mazkur sahifalardagi mavzularni o'tish davomida o'quvchilarga bizni o'rab turgan go'zal tabiatni asrash, daraxt va gullar ekish hamda uy hayvonlarini parvarish qilish kerakligi haqida tushuntirish kerak.

24-25-sahifalardagi rasmlar orqali o'quvchilarni qushlarga mehribon qilib tarbiyalash, ular ham jonli tabiatning bir bo'lagi ekanligi haqida tushuncha berish maqsadga muvofiqdir.

Kitobning 36-37-sahifalarida go'zal dengiz, katta kema, uning atrofida uchib yurgan qushlar tasvirlangan. Mazkur sahifalarda berilgan mavzuni o'tish bilan bir qatorda, o'quvchilarga Orol dengizi nima uchun quriyotganligi haqida tushunchalar berib, o'quvchilarning ekologik bilimlarini oshirish zarur.

40-41-sahifalarda o'quvchilarga er haqida, erdan qanchadan-qancha noz-ne'matlar etishtirilishi haqida tushuncha berish orqali ularning ekologiyaga oid bilimlarini oshirish mumkin.

55-sahifada ham tabiat manzaralari tasvirlangan bo'lib, o'quvchilarga atrof-muhit, uni asrab-avaylash haqida hikoyalar dars jarayonida o'qib berilishi kerak.

Ayniqsa, darslikning 81-sahifasida «Tug'ilgan er» she'ri hamda 82-sahifada «Nukus» mavzusi berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning ekologiyaga oid bilimlarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

B.Qutlimuratov, N.Tajenovlarning muallifligidagi 1-sinf o'qish darsligi A.Temur bog'iga bag'ishlangan ekologik ta'lim-tarbiyaviy qo'shiq bilan boshlanadi [2,76]. 1-sinf O'qish darsida O'zbekiston Respublikasining ramziy belgilari davlat bayrog'i, gimni matni, gerbining tasviri rasmiylashtirilgan kunlari har bir o'quvchi uchun o'rganishi zarur bo'lgan holatlar hisoblanadi. Bu ramzlar o'qish darsligining dastlabki sahifasidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat belgisini ifodalaydigan bayroq, gerb, madhiyadan boshlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat bayrog'ida ifodalangan paxta, bug'doy, quyosh tasvirlari Qoraqalpog'iston hududidagi o'simlik dunyosini tushuntirishda katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni «A.Temur bog'imizda» nomli qo'shiq bilan tanishtirish jarayonida ularni tabiatni sevish, atrof-muhitga mehr-oqibatli bo'lish ruhida tarbiyalash, buyuk sohibqiron haqidagi haqiqatlarni oddiy so'zlar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir [3,55].

Bu yoshdagi o'quvchilarga tabiat fasllarini o'rgatish asosida ekologik ta'lim-tarbiya berish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinfda «Qish» mavzusini o'tish orqali o'quvchilarga qish mavsumi haqida kengroq tushunchalar berish imkoniyati tug'iladi [3,78]. Bunda o'quvchi ongida qishda qanday o'zgarishlar bo'ladi? degan fikr-mulohazalar hosil qilish katta ahamiyatga egadir. O'quvchi bola qish mavsumi, uning o'ziga xos xususiyatini qay darajada tasavvur qila olishini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

1-sinf o'qish darsligidagi she'rlarda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladigan fikrlarni ko'plab uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda bu yoshdagi o'quvchilar sevib o'qiydigan ertaklar yordamida ham ularga ekologik ta'lim berishda keng foydalanish mumkin. Masalan, B.Maxmudovning «Aqlli Dehqon bobo» mavzusidagi ertakni misol qilib olishimiz mumkin [87]. Ertakda o'z mehnati bilan atrof-muhitni gullatgan, rizqimizni boyitgan, erni qadrlab kelgan aqlli Dehqon bobo to'g'risida fikr yuritiladi. Uning bor yo'g'i ozgina eri bo'lib, unda qishi-u yoz tinmasdan mehnat qiladi. Dehqon

boboning tinimsiz mehnati, erni bilish xususiyati uni yurtga tanitadi. Hatto uning erni parvarish qilish to'g'risidagi qobiliyati podshohga ham etib boradi. Podshoh Dehqon boboni chaqirtirib:

-Qani, aytchi, dunyoda nima barakali? - deb so'rabdi.

Dehqon bobo:

-Dunyoda urug' barakalidir -deb javob beradi.

-Qanaqa urug'?

-Bahorda erga tushgan bir dona bug'doy urug'i, yozda bir siqm bug'doy, bir dona chigit, bir g'alvir paxta, jug'orining bir donasi ming dona bo'ladi. Menimcha dunyoda bundan boshqa barakali narsa bo'lmasa kerak, -debdi Dehqon bobo.

Podshoh aqlli Dehqonning o'rinli javobidan ko'ngli to'ladi va darhol unga o'n tilla olib kelib berishni buyuradi. Shunda Dehqon bobo:

-Menga o'n tillang kerak emas, uning o'rniga bir g'alvir urug'lik bug'doy ber deb, iltimos qilibdi. Bu javobni eshitgan podshoh Dehqon boboning haqiqiy dehqon ekanligiga ishonch hosil qilibdi va unga bir g'alvir bug'doy va o'n tilla berib siylabdi [4].

Bu ertakni o'quvchilarga oddiy tilda, obrazli qilib etkazishda urug'likning dunyoda tilladan ham ustun ekanligi tushuntirib beriladi.

Aqlli Dehqon erga bo'lgan hurmat-izzati, mehnatsevarligi, erdan olinadigan hosillarni qadrlay bilish hislatlari bilan podshohning ham ko'nglini to'ldiradi. Dehqon podshoh in'om etgan o'n tilladan ko'ra barakali bir g'alvir bug'doy urug'ini afzal ko'radi va o'zining haqiqiy dehqon ekanligini isbot eta oladi.

1-sinf o'quvchilariga ushbu jarayonni tushuntirishda tabiatni e'zozlaydigan har qanday inson hamma erda hurmatga sazovor bo'lishiga o'quvchilarni ishonitirish, ularda ona zaminga, uning boyliklari, saxovatiga muhabbat uyg'otish lozim. Dehqon bobo o'zining mirishkorligi tufayli boyigani, ya'ni bir g'alvir bug'doy bilan birga o'n

tillaga ham ega bo'lganligini o'quvchilarga ibrat qilib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

X.Saparov muallifligidagi «Buzog'im» va «Oq quyon» kabi qo'shiqlarda 1-sinf o'quvchilariga o'qish darslarida ekologik ta'lim-tarbiya berishda quyon, buzoq kabi hayvonlarga ham ta'rif beriladi [5].

O'qish darslarida ekologik tushunchalarni darsdan darsga boyitib borish, unda oldingi darsda aytilgan fikrlarni keyingilarida to'ldirish, kengaytirish talab etiladi. Masalan, «Nonni e'zozlaylik» [6] mavzusidagi dars jarayonida bug'doy urug'idan ungan nonning qadri haqida fikr yuritiladi. O'quvchilarga non tirikchilik manbai, inson umrining tayanchi, dasturxon ko'rkidir, degan fikrlarni obrazli tarzda etkazish samarali natijalar beradi. Birinchi sinf o'quvchilariga dars jarayonida kundalik ist'emol qilinadigan nonning qadr-qimmatini oshirish uchun uni tayyorlash kabi mehnat jarayonini oddiy ko'rgazmali qurollar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi sinf o'quvchilari nonning qanday bo'lishini biladilar, lekin ularning barchasi ham bug'doy nonining tayyorlanish jarayoni, unga sarflanadigan mehnatni bilmaydi.

O'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabatini rivojlantirish va dars jarayonida ekologik fikrlarini kengaytirish uchun Sh.Atamuradovning «Non» qo'shig'idan foydalanish ham o'z samarasini beradi. Birinchi sinf o'quvchilari bu she'rni o'qib yod olishi jarayonida tabiat hodisalari, undagi o'simlik va boyliklarning qadr-qimmatiga etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Shunday qilib, o'quvchilarning ekologik tushunchalari «Dehqon bobo» haqidagi ertak, «Nonni qadrlash» haqidagi mavzular, qo'shiqlar S.Salievning «El rizqi» mavzularini o'tish jarayonida yanada kengayadi va mustahkamlanadi. «El rizqi» mavzusida ham bug'doy urug'i, donning el rizqi ekanligi Otaxon tarafidan bolaning ongiga oddiy, obrazli usul bilan tushuntiriladi.

Adabiyotlar

1. Abdullah E. (2011). Integration of environmental knowledge across biology, physics and chemistry subject at secondary level in Malaysia. *Procedia- Social and Behavioural Sciences*, 15, 1024-1028.
1. Абдрашитога И.В. Формирование нравственного и эстетического компонентов экологической культуры студентов педвуза / Автореф. канд. пед. наук. – Казань: 2004. – С. 22.
2. Авазов Ш. Кишлоқ мактаблари юқори синф ўқувчиларини ўлкашунослик фаолияти жараёнида экологик тарбиялаш // Пед. фан. Номз. дисс. – Т.: 1993. 161-б.
3. Aleksandr, R. & Poyyamoli, G. (2014). The effectiveness of environmental education for sustainable development based on active teaching and learning in high school is an example from the Puducherry and Cuddalore provinces of India. *Journal of Sustainability Education*, 7.
4. Алауаддинов С. Исломи дини манбаларида тарбиявий фикрлар ва уларни педагогик таҳлил этиш механизмлари // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Нукус: 2019, 158-б.
5. Алеуов У. Қарақалпақ халқиниң педагогикаси жаслардың мийнет тарбиясы ҳаққында. Қарақалпақ халқынң этнопедагогикаси. Мақалалар топламы. – Нөкис: «Билим», 1995, 27-36-б.
6. Алеуов У. Қарақалпақ халқынң жасларға экологиялық тарбия бериў дәстүрлери. // Вестник каракалпакского отделения АН Респ. Узб. 2001. № 1-2. 82-91-б.

REZYUME: Ushbu ilmiy maqola yaxshi usullardan foydalangan holda yoshlarni ekologik tarbiyalashning tizimli texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, o'qitish texnologiyalari alohida ishlat chiqilgan va yoshlarga ekologik ta'lim berishda ulardan foydalanish usullari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ: Данная научная статья направлена на совершенствование систематических технологий экологического просвещения молодежи с помощью хороших методов. При этом отдельно разработаны обучающие технологии и показаны пути их использования в экологическом просвещении молодежи.

SUMMARY: This scientific article seeks to increase the systematic technologies of environmental education of young people through proper methods. Moreover, teaching technologies have been developed separately and ways to use them in environmental education of young people are shown.

ОБРАЗОВАНИЕ В ОБЛАСТИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Л.Т.Ахмедова – доктор педагогических наук, профессор

Узбекский государственный университет мировых языков

Таянч сўзлар: чет тили, муаммо, тренд, кўп маданиятли таълим, кўп тиллилик, кўп тилли муҳит, рақамли технологиялар.

Ключевые слова: иностранный язык, проблема, тенденция, поликультурное образование, плюралингвизм, мультилингвальная среда, цифровые технологии.

Key words: foreign language, problem, trend, multicultural education, pluralism, multilingual environment, digital technologies.